

KARIMOVA Dilafruz Ravshanovna
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Ijtimoiy fanlar va huquq kafedrası
dotsenti, yuridik fanlar doktori
E-mail: d.karimova@iia.uz

BOLALARNING FUQAROLIK- HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI ISHTIROKINING XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ УЧАСТИЯ ДЕТЕЙ В ГРАЖДАНСКО- ПРАВОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ

FEATURES OF CHILDREN'S PARTICIPATION IN CIVIL-LEGAL RELATIONS

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida Bolalarning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki va uning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Ushbu maqolada, shuningdek, bola (bolalar), yetim bola, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, nogiron bola, ota-ona qaromog'idan mahrum bola kabi atamalarga huquqiy ta'rif keltirilgan.

Kalit so'zlar: bola (bolalar), fuqarolik-huquqiy munosabatlar, fuqaro, yetim bola, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, nogiron bola, ota-ona qaromog'idan mahrum bola.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности участия детей в гражданско-правовых отношениях в Республике Узбекистан. Представлены юридические определения таких понятий, как ребенок (дети), сирота, ребенок с отклонениями в физическом и (или) психическом развитии, дети, нуждающиеся в социальной защите, ребенок-инвалид, ребенок, лишенный родительской опеки.

Ключевые слова: ребенок (дети), гражданско-правовые отношения, гражданин, сирота, ребенок с отклонениями в физическом и/или умственном развитии, дети, нуждающиеся в социальной защите, ребенок-инвалид, ребенок, лишенный родительской опеки.

Annotation: The article describes the participation of children in civil law relations and its features in the Republic of Uzbekistan. This article also provides a legal definition of such concepts as a child (children),

an orphan, a child with disabilities in physical and (or) mental development, children in need of social protection, a disabled child, a child deprived of parental care.

Keywords: child (children), civil law relations, citizen, orphan, child with disabilities in physical and/or mental development, children in need of social protection, a disabled child, a child deprived of parental care.

KIRISH

Fuqarolik-huquqiy munosabatda alohida individ sifatida ishtirok etuvchi subyekt - bu fuqarodir. Ayrim hollarda fuqaro deganda faqat bir mamlakatga tegishli insonlar tushunilishi mumkin, lekin fuqarolik qonunchiligida "fuqaro" deganda nafaqat bir davlat fuqarolari, balki chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan tushuniladi. Ba'zan esa bunday munosabatlarda bolalar ham ishtirok eta oladilar va ularning fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti sifatida o'ziga hos jihatlari mavjud.

ASOSIY QISM

Fuqarolik huquqida jismoniy shaxs o'ziga xos huquqiy maqomga ega. Fuqarolik huquqida voyaga yetmaganlar va jismioniy shaxs va fuqaro tushunchasi tarkibiy qismi sifatida bir-biridan farqalanadi. Ayrim o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olmaganda, ular bilan bog'liq munosabatlarga fuqarolik huquqining umumiy qoidalari qo'llangan holda munosabat ishtirokchisi bo'ladilar. H.R.Rahmonqulovning fikricha, inson tirik ekan, u fuqarolik huquqi subyekti sifatida tan olinadi [5:115].

1948-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"da inson huquqlari umumiy asosda himoya qilinishi belgilangan bo'lsa-da, lekin unda maxsus voyaga yetmagan, ya'ni bolalarga tushuncha berilmagan. Inson huquqlari va bola huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlarda bolaga tushuncha berilmagan bo'lsa-da, lekin davlatlar milliy qonunchiligida bu masalga imkon qadar oydinlik kiritishga harakat qilishgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasida voyaga yetmaganlar (bolalar) bilan bog'liq bir qator tushunchalar berilgan. Jumladan:

bola (bolalar) - o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar);

yetim bola - otasi ham, onasi ham vafot etgan youti ular sud qaroriga ko'ra vafot etgan, deb e'lon qilingan lola;

jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola -nogironlikni belgilash uchun yetarli bo'lmagan jismoniy, aqliy, senson (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bola;

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar - yuzaga kelgan holatlar sababli turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'lab-quvvatlashga muhtoj bolalar;

nogiron bola - jismoniy, aqliy, senson (sezgi) va (yoki ruhiy) nuqsonlari bo'lganligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga, himoyaga muhtoj hamda qonunda belgilangan tartibda nogiron, deb topilgan bola;

ota-ona qaramog'idan mahrum bola - yetim bolalardan tashqari, har qanday sababga ko'ra ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola.

SH.R.Yuldasheva va Y.M.Kolosovlarning fikricha, 18 yoshga to'lmagan shaxs voyaga yetmagan hisoblanadi tarzidagi ta'rif bilan yuqoridagi tushunchalarga oydinlik kiritadilar [7:46].

T.A.Umarovning fikricha, voyaga yetmagan shaxsda yosh kreteriyasi bilan birga ishchanlik va aqliy qobiliyat, o'z xohish-irodasini ifodalash mazmunini idrok eta olishga qodirlik ham muhim o'rin egallashini ta'kidlaydi [6:36].

N.Ashurovaning fikricha, voyaga yetganlik va voyaga yetmaganlik orasidagi farqni aynan yosh bilan bog'lab qo'yilganligining asosiy sababi bu yoshdan (18 yosh) boshlab, insonda ruhiy yetuklikka erishish, hayotiy tajribaning shakllanishi, o'zining qilayotgan xatti-harakatini tushunish va o'zini idoar etish xislatlari paydo bo'ladi [1:25].

L.G.Kuznetsova va Y.N.Shevchenkolarining fikricha voyaga yetmaganlar ishtirokida huquqiy munosabatlarni tartibga solish imtiyozlarning mavjudligi, umumiy munosabatlarda qatnashganda imkoniyatlarning kengligi yoki muayyan cheklovlarining mavjudligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi [2:3].

I.I.Nasriyevning fikricha, ayrim hollarda chaqaloq onaning o'limidan keyin ham tug'ilishi mumkin (bunday holatlar onaning kasalligi yoki boshqa sabablar natijasida yuz berishi mumkin).

Gap shundaki, tibbiyot xodimlarining majburiyati sifati qonun hujjatlarida bolaning yashashiga imkon beradigan barcha chora-tadbirlarni ko'rishi shartligini belgilab qo'yish lozim, toki onaning bo'yidagi chaqaloqni saqlab qolishning barcha choralari ko'rilmagan hollarda javobgarlik yuzaga kelishi shart bo'lsin. Yana bir narsani alohida ta'kidlash lozimki, ona homilasining ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish yoki foydalanishni taqiqlash masalasi qonuny hal bo'lmog'i lozim. AQSH, Angliya kabi qator davlatlar bu tarzda olib boriladigan tadqiqoilarga qonun hujjatlari bilan chek qo'yilgan [4:17].

Bolaning tegishli huquqlarini, ayniqsa, meros olish bilan bo'lgan huquqlarni turli davlatlar turlicha yechishga harakat qilgan. Masalan, homila bo'lgan, biroq hali tug'ilmagan merosxo'r bo'lsa, merosni taqsimlash bunday merosxo'r tug'ilganidan keyingina amalga oshirilishi mumkin. Agar, homila holidan bo'lgan, biroq hali tug'ilmagan merosxo'r tirik tug'ilsa, qolgan merosxo'rlar unga tegishli bo'lgan meros ulushini ajratgan holdagina merosni taqsimlashni amalga oshirishga haqlidirlar. Meros taqsimotida chaqaloqning manfaatlarini himoya qilish uchun vasiylik va homiylik organining vakili taklif etilishi lozim. Bunday holat ayrim davlatlar fuqarolik qonunchiligida (Moldovaning FKning 1568-moddasi,) nazarda tutilgan bo'lsa, ayrim davlatlar (Armaniston va Turkmanistonning FKda) fuqarolik qonunchiligida bunday qoida mavjud emas.

F.A.Kurganova meros bo'lib qoldirilgan majburiy ulush imperativ mazmun kasb etishini, uni meros qoldiruvchining voyaga yetmagan yoki mehnatga qobiliyatsiz bolalari, shu jumladan, farzandlikka olgan bolalari majburiy olishini ta'kidlab o'tadi [3:9].

Respublikamizda bolalarning nafaqat fuqaroviy-huquqiy munosabatlardagi ishtirokining himoyasi, balki mehnat-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki ham har tomonlama himoya olingan. 1995-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi qabul qilindi. Mehnat kodeksida birinchi marta o'n to'rtinchi bobda ikkinchi paragraf bilan "Yoshlar uchun qo'shimcha kafolatlar" deb nomlangan maxsus qoidalardan iborat normalar kiritildi. Mehnat kodeksining 239-moddasida o'n sakkizga to'lmagan shaxslarni ishga qabul qilishdagi kafolatda ko'rsatildi. Mazkur moddaga ko'ra 18 ga to'lmagan shaxslar tibbiy ko'rikdan

o'tkazilib, belgilangan minimal ish o'rinlarida ishlari mumkin.

O'n sakkizga to'lmagan shaxslar mehnatga oid huquqiy munosabatlarda katt ayoshdagi xodimlar bilan teng huquqda bo'lishlari, mehnatni muhofaza qilish, ish vaqti, ta'tillar va boshqa mehnat shartlari sohasida ular uchun mehnat to'g'risidagi qonunlarda belgilangan qo'shimcha imtiyozlardan foydalanishlari qat'iy o'rnatildi.

Eng asosiysi 18 ga to'lmagan shaxslar mehnatidan qaysi hollarda va qanday ishlarda foydalanishni taqiqlash tartiblari belgilandi. O'nga ko'ra voyaga yetmaganlar sog'ligi, xavfsizligi yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan mehnat sharoiti noqulay ishlarda, yer osti ishlarida foydalanish taqiqlanadi. Bu toifadagi shaxslar normadan ortiq og'ir yuk ko'tarishlari va tashishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Voyaga yetmaganlar huquqlarini mehnat qonunchiligi orqali himoyalash shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar uchun qisqartirilgan ish vaqti belgilangan. Bunga ko'ra 16 dan 18 yoshgacha bo'lganlar uchun ish vaqti haftasiga 36 soatdan, 10 yoshdan 16 yoshgacha bo'lganlar esa haftasiga 24 soatdan oshmasligi norma sifatida belgilab qo'yildi. Bunday toifdagi va ushbu darajadagi mehnat soatida bo'lgan voyaga yetmaganlarning mehnatiga haq to'lash har kuni to'liq ishlaydigan yoshi katta xodimlarga to'lanadigan ish haqi miqdorida to'lanadi.

18 yoshga to'lmagan shaxslarni tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb etish taqiqlanadi. Voyaga yetmaganlar bilan ish beruvchi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga mahalliy mehnat organining roziligi bilan yo'l qo'yilishi ham bola huquqlarining hurmat qilinishidan dalolat beradi.

XULOSA

Demak, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni berish mumkin:

Birinchidan, jismoniy shaxsning huquqiy layoqati bosqichma-bosqich yuzaga keladi va sud qarori bilan cheklanishi mumkin;

Ikkinchidan, 6 yoshga to'lgunga qadar bola to'liq mehnatga layoqatsizdir;

Uchinchidan, to'liq huquqiy layoqatga 18 yoshga to'lgunga qadar ham ega bo'lish mumkin:

voyaga etmaganlar nikohga kirishishi yoki emansipatsiya holatlarida;

To'rtinchidan, voyaga etmagan shaxsni emansipatsiya qilingan deb tan olish uchun ma'lum omillarga rioya qilish kerak: 16 yoshga to'lishi, mehnat shartnomasi bo'yicha ishlash yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashurova N.A. Voyaga yetmaganlarning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki. Diss.yu. f.n. – T.: TDYUI, 2008. – B. 25.
2. Кузнецова Л.Г., Шевченко Я.Н. Гражданско-правовое положение несовершеннолетних. – М.: Юридическая литература, 1968. – С. 3.
3. Курганова Ф.А. Гражданско-правовые режимы наследования по законодательству Республики Узбекистан. Автореф.дисс. ... к.ю.н. – Т.: ТЮИУ, 2007. – С. 9.
4. Nasriyev I.I. Shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshirish va muhofaza qilishning fuqarolik-huquqiy muammolari. – T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2006. – B. 17.
5. Rahmonqulov H.R. O'zbekiston Respublkasi Fuqarolik kodeksiga umumiy tavsif va sharhlar. 1-jild. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997. – B. 115.
6. Umarov T.A. Xalqaro xususiy huquq: jismoniy shaxslarning huquqiy holati. – T.: Ijod dunyosi, 2003. – B. 36.
7. Yuldasheva Sh.R. Fuqarolik va olia huquqida vasiylik va homiylikning mohiyati va uni amalga oshirish usullari. Diss.yu.f.n. – T.: TDYUI, 2005. – B. 46.